

KASBIY TAYYORGARLIK VA UNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHALARI TALQINI

Shodmonova Munira Burxonovna

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Ona tili ta'limi kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

munira100@mail.ru

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10809223>

Annotatsiya. Mazkur maqolada ona tili va adabiyot o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarliklarini rivojlantirish borasida mulohazalar bayon etilib, undagi tayanch tushunchalar ilmiy jihadan tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy tayyorgarlik, rivojlantirish, malaka, ko'nikma, ehtiyoj, buyurtma, didaktik, kommunikatsiya.

INTERPRETATION OF CONCEPTS OF PROFESSIONAL TRAINING AND ITS DEVELOPMENT

Abstract. In this article, comments on the development of professional training of native language and literature teachers are presented, and the basic concepts in it are analyzed from a scientific point of view.

Key words: professional training, development, competence, skill, need, order, didactic, communication.

ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КОНЦЕПЦИЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ И ЕЕ РАЗВИТИЯ

Аннотация. В данной статье представлены комментарии к развитию профессиональной подготовки учителей родного языка и литературы, а также анализируются основные понятия в ней с научной точки зрения.

Ключевые слова: профессиональная подготовка, развитие, компетентность, умение, потребность, порядок, дидактика, общение.

Ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida malaka oshirish institutlarida o'quv-tarbiya ishlari samaradorligini oshirish, o'qituvchilarning kasbiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish hamda kasbiy tayyorgarliklarini rivojlantirish borasida malaka oshirish jarayonida amalga oshirilishi lozim bo'lgan bir qancha vazifalar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Ijtimoiy hayotning turli sohalorida, xususan, xalq ta'limi tizimida faoliyat yuritayotgan ona tili va adabiyot mutaxassislari kasbiy bilimlarini mudom oshirib borishlari, sohadagi o'zgarishlarni tez ilg'ashlari, ular bilan yaqindan tanishish asosida bilimlarini boyitib borishlari shular jumlasidandir. Prezident I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Toki hayot davom etar ekan, ta'lim ham, tarbiya ham zamon o'rtaga qo'yayotgan yangi-yangi talablarga ko'ra mustaqil ravishda o'zgarib-yangilanib boraveradi»¹ [2, 45].

Mutaxassislar bilan ishlashda ular joylashgan makon ham ahamiyat kasb etadi. Hududiy xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish institutlaridagi kurslar tinglovchilarga ona tili va adabiyot darslarini o'tishda qo'l keladigan bilimlarni beribgina qolmay, mustaqil izlanishga yo'naltirilgan metodik yordam ko'rsatishi joizdir.

¹ Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. –Тошкент: Шарк, 1999. – 184 б.

Zamonaviy sharoitda malaka oshirish sohaga doir yutuqlar va innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, shu asosda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni takomillashtirib, yangilashnigina nazarda tutmaydi. Ijtimoiy taraqqiyot, ta'lim islohoti o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlashni yangi metodologik asosda tashkil etish, eng avvalo, *ichki ehtiyoj*, kasbiy va ma'naviy qiziqishni *tashqi ta'sir* imkoniyatlari bilan o'zaro uyg'unlashtirish, insonning o'z-o'zini anglashi asosida tashkil etishni lozim, deb biladi² [16, 5].

Uzluksiz ta'lim tizimida yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash kabi serqirra vazifani faqat malakali o'qituvchi muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin. Pedagog qiyofasida barkamol shaxs va malakali mutaxassisga xos bo'lgan barcha sifatlar o'z aksini topa olishi zarur. Mazkur sifatning namoyon bo'lishi o'qituvchining kasbiy tayyorgarlik darajasini tavsiflaydi³ [13, 26].

Soha mutaxassislari fikriga ko'ra, o'qituvchining shaxsiy va kasbiy rivojlanishi shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish demakdir. Jumladan, N.Muslimov⁴ [15, 40-45] ijodkorlik kasbiy faoliyatni loyihalashga bo'lgan ob'ektiv ehtiyojdir, deb hisoblaydi. Olimning ta'kidlashicha, o'qituvchi kasbiy tayyorgarlik jarayonini individual loyihalash kasbiy-pedagogik ta'limning yetakchi mezonini bo'lib qolgan. O'qituvchi kasbiy shakllanishi natijasini anglatuvchi yangi tushuncha – «kasbiy-pedagogik o'ziga xoslik»ning yuzaga kelishi hamda rivojlanishi to'g'risida so'z yuritib, «rivojlanish» va «shakllanish» tushunchalari ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, e'tibor jarayonga emas, balki natijaga qaratilishini e'tirof etadi.

Bizningcha esa, rivojlanish va shakllanish tushunchalari o'z mohiyati, ma'nosi jihatidan yaqin so'zlar emas, balki biri ikkinchisini taqozo etuvchi jarayonlardir.

O'qituvchi shaxsi unda mavjud qobiliyatga bog'liq tarzda rivojlanadi. M.G.Davletshin «Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi» nomli qo'llanmasida⁵ [8] o'qituvchining **didaktik** (fanga qiziqtirish, aniq va oson anglatish, mustaqil fikrlashga o'rgatish); **akademik** (matematika, fizika, biologiya, ona tili, adabiyot, tarix va shu kabi fanlarga xos); **perseptiv** (o'quvchi ichki dunyosi, ruhiy holati kabi nozik jihatlarni tushunish); **nutq** (kechinmalarni nutq, yuz ifodasi (mimika) va pantomimika yordamida aniq ifodalash); **tashkilotchilik** (o'z ishini to'g'ri tashkil qilish va o'quvchilarni jipslashtirish); **avtoritar** (o'quvchilarga hissiy-irodaviy ta'sir o'tkazib, ular orasida obro' orttira bilish); **kommunikativ** (bolalarga to'g'ri yondashish, ular bilan pedagogik maqsadga mos muloqotga kirishish, me'yorni unutmaslik); **pedagogik mulohaza** (o'quvchini ta'limiy va tarbiyaviy shakllantirish borasidagi urinishlari natijasini bashorat qila olish); **diqqatni taqsimlay olish** (bir vaqtning o'zida diqqatni bir qancha faoliyatga qarata olish) kabi 8 xil qobiliyatini sanab o'tgan.

Tadqiqotchi N.V.Kuzmina⁶ [12] fikricha esa, pedagogik qobiliyat to'rt qismdan tarkib topgan: *prognostik* (bilimlarni o'zlashtirish); *prektivlik* (faoliyatni rejalashtira olish); *tashkilotchilik* va *kommunikativlik*.

² Ражабова С.Ф. Касб-хунар коллежи ўқитувчисининг касбий маҳоратини оширишнинг ташкилий-педагогик асослари (Малака ошириш жараёнида): Пед. фан. ном. ... дис. – Тошкент: ЎМКХТТКМО ва УҚТИ, 2004. – 191 б.

³ Мардонов Ш.Қ. Педагог кадрларни таълимий кадрлар асосида тайёрлаш ва малакасини оширишнинг педагогик асослари: Пед. фан. док. ... дис. – Тошкент: ЎзПФТИ, 2006. – 257 б.

⁴ Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шаклланишининг назарий-методик асослари: Пед.фан.док. ... дис. – Тошкент: ЎМКХТТКМО ва УҚТИ, 2006. – 349 б.

⁵ Давлетшин М. Замонавий мактаб ўқитувчисининг психологияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999. – 30 б.

⁶ Кузьмина Н.В. Формирование педагогических диагностических умений в процессе профессиональной подготовки будущего учителя. Автореф. ... канд. пед. наук. – Нижний Новгород: 1994. – 16 с.

O'qituvchi kasbiy rivojlanishining pedagogik salohiyatdan tashqari yana qator omillari mavjud. L.M.Mitina va O.V.Kuzmenkova⁷ [14, 31] mulohazasiga ko'ra bunda shaxsning ish faoliyatida o'z imkoniyatlarini ijodiy namoyon qilishi bosh o'rin tutadi. Namoyon qilish uchun esa yashash tarzi hamda ichki dunyosini faol o'zgartira olish xususiyati asosiy omil sanaladi.

Mualliflar kasbiy o'zlikni anglash darajasining o'sishi kasbiy shakllanishga qulay sharoit yaratadi, deb hisoblashadi. O'qituvchining o'z imkoniyatlarini ijodiy tatbiq qila olishi shakllanish va rivojlanish natijasi tarzida qabul qilinadi. O'qituvchi faoliyatida muhim o'rin tutuvchi o'zini anglash tuyg'usi quyidagi bosqichlarda shakllanadi: *o'z shaxsiga nisbatan qiziqish; o'ziga* (yoki *o'z kuchiga*) *ishonch; o'zgalarga bo'lgan munosabat; o'zini ayblash* va *o'zini tutish*. Shu tarzda bino bo'lgan shaxsiy komillik kasbiy kamolot, malaka sari yetaklaydi.

Kasbiy malaka tushunchasi xususida soha mutaxassislari orasida tafovutli qarashlar mavjud. X.Abdukarimov⁸ [4, 46] kasbiy malaka kasbiy-axloqiy; tashkilotchilik; tahlil va ijodkorlik malakasi ko'rinishida namoyon bo'ladi desa, G.Boymurodova⁹ [7] buning xatoligini, «malaka» tushunchasi ish-faoliyat yoki hatti-harakat mohiyatini bildirishini, bevosita shaxs hatti-harakatining ifodalanish darajasini ko'rsatishini, pedagogik atamalar tizimida «kasbiy-axloqiy malaka» o'rniga kasbiy axloqning yuqori darajasi bo'lgan «kasbiy madaniyat» yoki «kasbiy yetuklik» tushunchalari qo'llanishini ta'kidlagan.

Biz bunday talqinlar bir yoqlama, degan fikrdamiz. Zotan, X.Abdukarimovning qarashlari kasbiy layoqatni to'laqonli aks ettirishga oiddir. Biror faoliyatni muntazam tashkil etish shaxsda muayyan ko'nikmalarni hosil qiladi. Ko'nikmalar faoliyatni izchil davom ettirish jarayonida malakalarga aylanadi. Shakllangan malaka esa shaxs faoliyatining tezkor, sifatli hamda samarali bo'lishini ta'minlaydi. Ishda samaradorlikka erishish kishini qanchalik qiziqтира, kasbiy faoliyatida shunchalik yuqori malakali bo'ladi. Shu bois kasbiy malakaga ega bo'lish, nafaqat, ijtimoiy, balki shaxsiy ahamiyatga ham egadir. Kadrlar kasbiy malakasini oshirish ta'lim tizimida muhim yo'nalish hisoblanishi bejiz emas. Avvalo, maxsus bilim, so'ng uzoq vaqt uzluksiz takrorlanadigan mashqlar orqali egallanadigan tajriba va ko'nikmalarni aql-idrok chig'irig'idan o'tkazib, jamlashtirish *malaka* hisoblanadi.

Ma'lumki, ta'lim olish, shu jumladan, malaka oshirish, o'z ustida ishlash ham me'yorida (sog'lom) rivojlanayotgan har bir inson uchun tabiiy va ijtimoiy ehtiyojdir. Ehtiyojning paydo bo'lishi uchun inson boshqalardan orqada qolayotganini his etishi, ularga yetib olishga o'zida kuch va imkoniyat topa bilishi zarur. Metodist olim Q.Yo'ldoshev bundan oldin «o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarlik darajasini ... aniqlash yuzasidan diagnostik maqsadlarda so'rov o'tkazish hamda ularni tahlil etish»¹⁰ [11, 13] zarur, deb hisoblaydi.

Pedagogik atamalar lug'ati¹¹ [9, 58] da «Kasbiy tayyorgarlik – ta'lim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuini bajarish uchun zarur malakalarni jadal egallash maqsadini

⁷ Митина Л.М., Кузьменкова О.В. Психологические особенности внутриличностных противоречий учителя // Вопросы психологии. – Москва, 1998. – № 3. – С.31-29.

⁸ Абдукаримов Х. Касб тарбияси ва унинг ижтимоий педагогик моҳияти. // Халқ таълими. – Тошкент, 2006. – № 4 – Б. 18-20.

⁹ Боймуродова Г.Т. Бошланғич синф ўқитувчилари касбий-шахсий тайёргарлигининг технологик тизими: Пед. фан. номз. ... дис. – Тошкент: ТДПУ, 2009. – 155 б.

¹⁰ Йўлдошев Қ, Янгича педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дис. –Тошкент: ЎзПФТИ, 1997. – 302 б.

¹¹ Джураев Р.Х., Толипов Ў.Қ., Сафарова Р.Ғ., Тўракулов Х.О., Иноятова М.Э., Диванова М.С. Педагогик атамалар лугати / Р.Х.Джураев тахрири остида. – Т.: Фан, 2008., – 196 б.

nazarda tutadigan pedagogik jarayon» deya ta'riflanadi. Bizningcha, kasbiy tayyorgarlik – ta'lim beruvchining muayyan pedagogik maqsadni amalga oshirishgacha bo'lgan mavjud malakalari majmui.

Biz bu o'rinda «malaka oshirish» va «rivojlantirish» tushunchalari mohiyatiga to'xtalib o'tishni joiz topdik. «Malaka – biror bir kasbni, ishni yaxshi o'zlashtirish natijasida orttirilgan tajriba, mahorat»¹² [6, 533]. Malaka oshirish – uzluksiz ta'lim tizimi turlaridan biri bo'lib, barcha sohada ishlovchi mutaxassislar va rahbar xodimlarning kasbiy bilim va ko'nikmalarini yangilash hamda chuqurlashtirishni nazarda tutadi.

«Rivojlantirish» ko'proq miqdoriy xarakterga ega tushuncha bo'lib, individning shaxsga xos yangi xususiyatlarni umri mobaynida muntazam egallab borish jarayonini aks ettiradi. Nutq boyishi, bilim ko'payishi, axloqiy normalarni o'zlashtira borish, o'zgarar munosabatlari bilan hisoblashishga odatlanish – rivojlanish belgilaridir. Lekin, fikrimizcha, ta'lim-tarbiya jarayonida miqdoriy jihatlarga qaraganda sifat ko'rsatkichlari ahamiyatliroqdir. Rivojlanish natijasida erishilgan ma'naviy sifatlarning qat'iylashib, shaxs xarakteriga aylanishi va uning ma'naviy qiyofasini belgilashi **shakllanish** tushunchasining mohiyatini aks ettiradi.

Inson tabiatida mavjud takomillashish, **rivojlanish**ga bo'lgan mayl oqar suv xususiyatiga ega. Suvga oqishni o'rgatish shart emas, uni boshqarish, oldi to'sib qo'yilishiga yo'l qo'ymaslik kerak¹³ [11, 68]. Zotan, insonga xos **rivojlanish** darajasi hamisha muhit bilan mutanosib tarzda kechadi. Shu bois ona tili va adabiyot o'qituvchisi ta'lim oluvchilar fikrlashining tashqi muhit bilan aloqasini aniqlashi va muvofiqlashtirishi, uning yo'nalishlarini boshqara bilishi kerak.

Bunday tutum malaka oshirish tizimida ham samarali natija beradi.

«Rivojlanish» hamda «shakllanish» tushunchalariga qaytib, masalaning quyidagi qirralariga e'tiboringizni tortmoqchimiz. Avvalo, lug'aviy ma'nosiga ko'ra, «*rivojlanish*» arab tilida bir holatdan ikkinchi yuqori holatga o'tish, o'sish, yuksalish, taraqqiyot, ravnaq^{14 15}[5, 584; 6, 382]ni; «*shakllanmoq*» aniq bir mazmun, yo'nalish kasb etmoq [6, 392]ni, «*shakllantirish*» insonda nasliy omil, muhit, yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya va shaxsiy faollik yordamida bilim, ko'nikma, malaka va fazilatlarini tarkib toptirish jarayoni¹⁶ [9, 142]ni anglatadi. Demak, *rivojlanish* inson tavalludidan faoliyatining so'ngigacha davom etadigan uzluksiz jarayon, *shakllanish* esa tashqi va ichki omillar ta'sirida ma'lum faoliyatga yo'naltirilgan maqsadli jarayon ekan. Bundan kelib chiqqan holda, ona tili va adabiyot o'qituvchisi kasbiy tayyorgarligini ham shaxs umumiy rivojlanishining tarkibiy qismi va jarayoni doirasida ko'rib chiqishni lozim topdik.

O'rta maktab o'qituvchilarining shaxs umumiy rivojlanishi psixolog olim A.M.Jobborov¹⁷ [10, 167] tomonidan tekshirilganda, ijtimoiy fan o'qituvchilarida kirishimlilik va o'zini nazorat

¹² Бегматов Э., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мирзаев Т, Тўхлиев Н, Умаров Э, Худойберганава Д., Ҳожиёв А. Ўзбек тилининг изоҳли лугати / А.Мадвалиев таҳрири остида. Т.2 – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 382 б.

¹³ Йўлдошев К. Янгича педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дис. –Тошкент: ЎзПФТИ, 1997. – 302 б.

¹⁴ Акобиров С.Ф., Аликулов Т.А., Зуфаров С.З., Иброхимов С.И., Икромова Н.И., Маматов Н.М., Маъруфов З.М., Миртожиев М.М., Михайлов Г.Н., Нуъмонова Ш., Хўжахонов А.Т., Ҳабибуллаев Н. Ўзбек тилининг изоҳли лугати / З.М.Маъруфов таҳрири остида. Т.2 – М.: Рустили, 1981. – 392 б.

¹⁵ Бегматов Э., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мирзаев Т, Тўхлиев Н, Умаров Э, Худойберганава Д., Ҳожиёв А. Ўзбек тилининг изоҳли лугати / А.Мадвалиев таҳрири остида. Т.2 – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 382 б.

¹⁶ Джураев Р.Х., Толипов Ў.К., Сафарова Р.Ф., Тўракулов Х.О., Иноятова М.Э., Диванова М.С. Педагогик атамалар лугати / Р.Х.Джураев таҳрири остида. – Т.: Фан, 2008., – 196 б.

¹⁷ Жобборов А.М. Ўзбек мактаби ўқитувчисининг психологик ва этник хусусиятлари: Псих. фан. док. ... дис. – Т.: ЎЗМУ, 1999. – 317 б.

qilish o'qitiladigan predmet taqozosiga ko'ra yuqoriroq darajada bo'lishi, kasbiy tayyorgarlik pedagogik masalalar yechimigagina emas, balki o'qituvchi shaxsining shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Bunga binoan rasman 26,8 % o'qituvchilarning pedagogik faoliyati no'noq, samarasiz, 37,1% va 31,2%da axborot, kommunikativ va tashkiliy-konstruktiv sifatlari quyi darajada; 50,3 %i yetarlicha mahoratli, ammo noijodiy pedagogik faoliyat olib borar ekan. Mazkur 50,3% ichidagi konservativ qarashli o'qituvchilar, odatda, vijdonan ishlab, barcha ko'rsatma, qoida va me'yorlarga qat'iy rioya qiladilar. Ular tajribaga moyil bo'lishmasa-da, milliy ta'lim tamoyillari yordamida ijodiy imkoniyatlari ochilishi mumkin. Hamkasblari tajribasiga suyanib ishlaydigan o'qituvchilar 15,44%ni, ilg'or tajriba va fan yutuqlaridan foydalanadiganlari atigi 7,46 %ni tashkil etar ekan. Qiziq fakt shundaki, aynan axborot-kommunikativ va tashkiliy-konstruktiv salohiyati quyi bo'lgan (31,2%) hamda yetarlicha mahoratli, ammo noijodiy pedagogik faoliyat yuritadigan (50,3 %) o'qituvchilar respublika miqyosida 22,9%ni tashkil etadi hamda yurtimizda yangi milliy maktab qurishning tayanchi hisoblanadi.

Takomillashishga intilmaydigan 26,8% o'qituvchi u qadar baland ko'rsatkich sanalmasa-da, faoliyatda fidoyi o'qituvchilarimiz soni salmoqli bo'lsa-da, soha mutaxassislarini ushbu raqamlar ham tashvishga solishi tayin. Zotan, kasbiy faoliyat va maktabdagi ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada olib borilishi faqat o'qituvchi mahoratiga, uning quyidagi fazilatlariga egaligiga bog'liq:

- kuchli tafakkur, teran ong, serqirra intellektual salohiyat egasi bo'lish, o'z mutaxassisligini sevish;
- e'tiqod, iymon va oilasiga mehri bilan yoshlarga o'rnak bo'lish;
- tashviqotchi va targ'ibotchi ekani uchun sohasini yaxshi ko'rishi, iste'dodi, tuyg'ularini boshqara olishi, bolajon bo'lishi lozim;
- tashqi ko'rinish, kiyinish, so'zlashuvda pedagogik odob va madaniyatdan og'ishmaslik;
- auditoriyani to'la nazorat qilish, bir xil mehr ko'rsatish va kuchli pedagogik mahorat;
- nutqi boy, kinoya va kibr-havosiz so'zlashi;
- obro' orttira olish, ilmiy-ma'rifiy ishlar va pedagogik mahorati bilan shogirdlariga o'rnak bo'lishi zarur.

Uzluksiz ta'limning malaka oshirish tizimiga doir mavjud adabiyotlarda asosiy urg'u malaka oshirishning umumiy holatiga, ona tili va adabiyot o'qitish jarayonida esa fanni o'qitishning metodik jihatlariga bag'ishlangan bo'lib, ularda o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish masalalari hamda bu jarayonning mohiyati yetarlicha ochib berilmagan.

Aslida esa, xalq ta'limi sohasida yuz bergan tub islohotlar ta'lim muassasalari oldidagi vazifalarni o'zgartirganligini hisobga olib, o'qituvchi faoliyatini yangilash, uning kasbiy mahoratini oshirishga e'tiborni qaratish – kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish muammosi dolzarb metodik muammo sifatida tadqiq etishga muhtojdir. Chunki «O'z fikrini mutlaqo mustaqil, ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta olmaydigan mutaxassisni, avvalambor, rahbar kursisiga o'tirganlarni bugun tushunish ham oqlash ham qiyin»¹⁸[3].

¹⁸ Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор таракқиёт йўлида: Т., 6-Т.: Ўзбекистон, 1998 йил.331-б.

Shuningdek, «... badiiy adabiyot vakillarining xalqimiz qalbini, uning oliy maqsadlari, bugungi hayoti, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdagi o'rni va ta'siri beqiyosdir»¹⁹ [1, 7].

Milliy ta'lim tizimining maqsadi barkamol avlod, komil shaxsni tarbiyalashdir. Bu maqsad pedagogning o'zi ham takomilga yetgan bo'lishini talab etadi. Komil pedagogda aks etishi zarur bo'lgan sifatlar ilmiy bilim, mutaxassislik fanlari asoslarini puxta o'zlashtirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar, ularning xizmatidan foydalana olish va shu kabilardan iborat. Mazkur sifatlarini shakllantirish kasbiy bilimlarni o'rganish, shaxsiy ko'nikma va malakani rivojlantirib borish natijasida yuzaga keladi.

Kasbiy malakaga ega bo'lmagan pedagoglar yosh avlodga sifatli ta'lim berish, ularda yuksak ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirish imkoniga ega bo'lishmaydi. O'qituvchilar, shu jumladan, ona tili va adabiyot o'qituvchilarining malakasini oshirishni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish, mavjud ko'nikma hamda malakalarini takomillashtirish, ma'naviy-axloqiy sifatlarini boyitish tarzida tushunish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarda ro'y berayotgan tezkor o'zgarishlar mavjud bilimlarni muntazam boyitib turish, ko'nikma va malakalarni takomillashtirishni taqozo etadi. Shu sababli har bir mutaxassis o'z ustida tinimsiz ishlashi, bilim va malakalarini uzluksiz oshirib borishi lozim. Ushbu jarayon esa kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash muassasalarida yuz beradi.

Jamiyatda butun kuch va e'tibor barkamol shaxsni tarbiyalashga qaratilayotgan sharoitda o'rta maktab o'quvchilarining ona tili adabiyot fani asoslarini puxta o'zlashtirishlariga erishish ularda mustaqil fikrlash va estetik his-tuyg'ularni shakllantiradi. Ona tili va adabiy ta'limning bunday samaradorligiga erishish uchun jahon standartlari talablariga muvofiq tarzda o'qituvchilar malakasini oshirish hamda kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish lozim. Ayni vaqtda esa o'quv jarayonini yangicha yondashuv asosida tashkil etish ta'limni samarali tashkil etishning eng maqbul yo'li sifatida ta'kidlanmoqda.

Yuqorida bildirilgan fikrlar, ish jarayonida foydalanilgan adabiyotlar va shu mavzuda tadqiqot olib borgan olimlarning nazariy qarashlarini o'rgangan va umumlashtirgan holda quyidagi xulosalarni bayon etish mumkin:

- nafaqat bo'lajak mutaxassis, balki ko'p yillik tajribaga ega bo'lgan o'qituvchi ham kasbiy tayyorgarlik darajasini uzluksiz rivojlantirib borishi zarur;
- kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan pedagoglarda yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalash imkonlari quyi darajada bo'ladi;
- o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi shaxs umumiy rivojlanishining tarkibiy qismi hisoblanadi;
- shu tufayli kasbiy tayyorgarlik va uni rivojlantirishda pedagogning insoniy fazilatlarini muhim ahamiyat kasb etadi;
- pedagog xodimlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash tizimi o'zbek milliy ta'limining mustaqil turi deb belgilandi.

¹⁹ Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 40 б.

REFERENCES

1. Каримов И.А. Адабиётга эътибор – маънавиятга, келажакка эътибор. – Тошкент: Ўзбекистон, 2009. – 40 б.
2. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси. –Тошкент: Шарқ, 1999. – 184 б.
3. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлида: Т., 6-Т.: Ўзбекистон, 1998 йил.331-б.
4. Абдукаримов Х. Касб тарбияси ва унинг ижтимоий педагогик моҳияти. // Халқ таълими. – Тошкент, 2006. – № 4 – Б. 18-20.
5. Ақобиров С.Ф., Алиқулов Т.А., Зуфаров С.З., Иброҳимов С.И., Икромов Н.И., Маматов Н.М., Маъруфов З.М., Миртожиев М.М., Михайлов Г.Н., Нуъмонова Ш., Хўжахонов А.Т., Ҳабибуллаев Н. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / З.М.Маъруфов таҳрири остида. Т.2 – М.: Рустили, 1981. – 392 б.
6. Бегматов Э., Мадвалиев А., Маҳкамов Н., Мирзаев Т, Тўхлиев Н, Умаров Э, Худойберганаева Д., Ҳожиёв А. Ўзбек тилининг изоҳли луғати / А.Мадвалиев таҳрири остида. Т.2 – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 382 б.
7. Боймуродова Г.Т. Бошланғич синф ўқитувчилари касбий-шахсий тайёргарлигининг технологик тизими: Пед. фан. номз. ... дис. – Тошкент: ТДПУ, 2009. – 155 б.
8. Давлетшин М. Замонавий мактаб ўқитувчисининг психологияси. – Тошкент: Ўзбекистон, 1999.– 30 б.
9. Джураев Р.Х., Толипов Ў.Қ., Сафарова Р.Ф., Тўрақулов Х.О., Иноятова М.Э., Диванова М.С. Педагогик атамалар луғати / Р.Х.Джураев таҳрири остида. – Т.: Фан, 2008., – 196 б.
10. Жобборов А.М. Ўзбек мактаби ўқитувчисининг психологик ва этник хусусиятлари: Псих. фан. док. ... дис. – Т.: ЎЗМУ, 1999. – 317 б.4. Ражабова С.Ф. Касб-ҳунар коллежи ўқитувчисининг касбий маҳоратини оширишнинг ташкилий-педагогик асослари (Малака ошириш жараёнида): Пед. фан. ном. ... дис. – Тошкент: ЎМКХТТКМО ва УҚТИ, 2004. – 191 б.
11. Йўлдошев Қ. Янги педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дис. –Тошкент: ЎзПФТИ, 1997. – 302 б.
12. Кузьмина Н.В. Формирование педагогических диагностических умений в процессе профессиональной подготовки будущего учителя. Автореф. ... канд. пед. наук. – Нижний Новгород: 1994. – 16 с.
13. Мардонов Ш.Қ. Педагог кадрларни таълимий кадрлар асосида тайёрлаш ва малакасини оширишнинг педагогик асослари: Пед. фан. док. ... дис. – Тошкент: ЎзПФТИ, 2006. – 257 б.
14. Митина Л.М., Кузьменкова О.В. Психологические особенности внутриличностных противоречий учителя // Вопросы психологии. – Москва, 1998. – № 3. – С.31-29.
15. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шаклланишининг назарий-методик асослари: Пед.фан.док. ... дис. – Тошкент: ЎМКХТТКМО ва УҚТИ, 2006. – 349 б.

16. Ражабова С.Ф. Касб-ҳунар коллежи ўқитувчисининг касбий маҳоратини оширишнинг ташкилий-педагогик асослари (Малака ошириш жараёнида): Пед. фан. ном. ... дис. – Тошкент: ЎМКХТТКМО ва УҚТИ, 2004. – 191 б.